



BO'LAJAK TARBIYACHILARNING FAOLIYAT MARKAZLARIDA ISHLASH KOMPTENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH

Berdimurodova E'zoza Javlon qizi

MT-2/24 guruh talabasi

Rahmonova Dilafro'z Bahronjon qizi

Maktabgacha ta'lim kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada maktabgacha ta'lim bo'g'inida faoliyat olib boradigan tarbiyachilarning kasbiy kompetentligiga xos bo'lgan asosiy belgilar, kasbiy kompetensiyaning shakllanishi va rivojlanishi bosqichlari to'g'risida fikr yuritilgan. Shuningdek, MTT tarbiyachilari o'zlarida mujassamlashtirishlari nazarda tutilgan kompetensiyalar mazmuni bayon qilingan.

Kalit so'zlar: kasbiy kompetentlik, MTT tarbiyachilari, talablar, pedagogik imkoniyatlar, innovatsion g'oyalar, kasbiy mahorat.

Abstract: This article analyzes the main characteristics of professional competence specific to preschool educators, as well as the stages of the formation and development of professional competence. The content of the competencies that preschool education institution teachers are expected to acquire is also discussed. The article further examines the pedagogical opportunities, innovative approaches, and aspects related to the improvement of professional skills of educators.

Keywords: professional competence, preschool educators, requirements, pedagogical opportunities, innovative ideas, professional skills.

Аннотация: В статье рассматриваются основные признаки профессиональной компетентности воспитателей дошкольных образовательных учреждений, а также этапы формирования и развития профессиональной компетентности. Раскрывается содержание компетенций, которые должны быть присущи педагогам дошкольных учреждений. Кроме того, анализируются педагогические возможности,



инновационные подходы и аспекты повышения профессионального мастерства воспитателей.

Ключевые слова: профессиональная компетентность, воспитатели ДОО, требования, педагогические возможности, инновационные идеи, профессиональное мастерство.

Kompetentlik mehnat bozorida o'zining munosib o'rniga ega bo'lishni istagan mutaxassis uchun raqobatbardoshlik asosi sanaladi. Ayni paytda maorif sohasi, jumladan, maktabgacha ta'lim tizimi xodimlaridan kasbiy kompetentlik ma'naviy mukammallik bilan uyg'unlashgan holda bo'lishi talab qilinadi [1]. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan shug'ullanuvchi tarbiyachining kasbiy kompetentligi ijodiy intellektining ortib borishi, o'z sohasidagi innovatsiyalarni o'zlashtirishga moyilligi, o'zgaruvchan pedagogik vaziyatlarga moslashuvchanligi bilan ham belgilanadi. Tarbiyachining kasbiy kompetentlilik darajasi to'g'ridan-to'g'ri jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy taraqqiyotiga o'z ta'sirini ko'rsatadi [2:23].

Maktabgacha ta'lim bo'g'inida faoliyat olib boradigan tarbiyachilarning kasbiy kompetentligiga xos bo'lgan asosiy belgilarni boshqa soha mutaxassislariga qo'yiladigan talablarga tayanilgan holda quyidagicha sanab ko'rsatish mumkin:

1. Har xil yoshdagi (yosh toifasi turlicha) bolalar bilan ularning yoshi va intellektual imkoniyatlariga tayanib ishlay olish.
2. O'z sohasi bo'yicha tarbiyalanuvchilarning yosh psixologiyasi, pedagogik imkoniyatlarini anglagan holda tadqiqot ishlarini olib borish.
3. Amaliy faoliyatida innovatsion g'oyalardan foydalanish, yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish.
4. Ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik qo'llab-quvvatlashning har xil shakllaridan foydalana bilish.
5. Tarbiyachilar faoliyati bilan bog'liq tashkil etilgan har xil tanlov, festival va musobaqalarda ishtirok etish.
6. Har qanday pedagogik shart-sharoitlarda o'zining pedagogik mahoratini namoyish eta bilish.



7. Mamlakat davriy matbuotida hamkasblari bilan o'z tajribalarini o'rtoqlashish va boshqalar [3:135].

Bu sifatlarning hech biri tarbiyachida o'z-o'zidan shakllanib qolmaydi. Buning uchun u kasbiy mahoratini oshirishga ehtiyoj sezishi, bunga intilishi lozim. MTT tarbiyachisi kasbiy kompetensiyasining shakllanishi va rivojlanishi bosqichlarini quyidagicha ajratib ko'rsatish mumkin: ·

- kasbiy mahoratini oshirishning tarbiyachi tomonidan tahlil qilinishi va anglanishi; ·
- o'z-o'zini rivojlantirish (maqsad, vazifa va hal etish yo'llarini)ning rejalashtirilishi; ·
- o'z-o'zini namoyish qila bilish, faoliyatini tahlil va tahrir qila olishi.

MTT tarbiyachisining kasbiy kompetentligining shakllanishi va rivojlanishi uzoq hamda uzluksiz tarzda amalga oshadigan jarayondir. Ya'ni tarbiyachi pedagogik faoliyatda tinimsiz ravishda o'z ustida ishlashi, soha yangiliklaridan xabardor bo'lishi, mashg'ulotdan mashg'ulotga o'zida yangi sifatlarni shakllantira borishi lozim.

MTT tarbiyachisining kasbiy kompetentligi mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishinigina emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini ham nazarda tutadi. Shuningdek, kasbiy kompetensiya muhim ijtimoiy talablarni angelay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni ham taqozo etadi.

- O'z kasbiy kompetentligiga intilgan MTT tarbiyachisi: ·
- bilimlarini izchil ravishda boyitib boradi; ·
- sohasi bo'yicha yangi axborotlarni o'zlashtiradi; ·
- davr talablarini chuqur angelaydi; ·

yangi bilimlarni qayta ishlaydi va amaliy faoliyatida samarali qo'llaydi; · murakkab jarayonlarda, noaniq vaziyatlarda bir-biriga zid ma'lumotlardan oqilona foydalanadi; ·



kutilmagan vaziyatlarda ham harakat rejasiga ega bo'la oladi. N. Muslimov va boshqalar tomonidan ta'kidlangan kompetentlikka ijodiy yondashgan holda MTT tarbiyachilari o'zlarida mujassamlashtirishlari nazarda tutilgan kompetensiyani quyidagicha aks ettirish mumkin: ·

Psixologik kompetentlik – pedagogik amaliyotida sog'lom muhit yarata olish, tarbiyalanuvchilar bilan ijobiy muloqotni yo'lga qo'ya bilish, turli ziddiyatli holatlarni vaqtda payqash va ularni bartaraf eta bilish; ·

Metodik kompetentlik – maktabgacha ta'lim jarayonini metodik jihatdan to'g'ri tashkil etish, ta'limiy yoki tarbiyaviy faoliyat uchun zarur metod va vositalarni maqsadga muvofiq tarzda tanlay olish; ·

Informatsion kompetentlik – minglab axborotlar oqimi orasidan sohasi uchun zarur, muhim va samarali ma'lumotlarni topib saralab olish, ularni qayta ishlab, ta'lim amaliyotida oqilona foydalana bilish; ·

Kreativ kompetentlik – o'z tarbiyachilik amaliyotiga tanqidiy va ijodiy yondosha bilish, ish faoliyatida ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish; ·

Innovatsion kompetentlik – tarbiyachilik faoliyatini vaziyatga moslashgan holda takomillashtira borish, ta'lim-tarbiya sifatini yaxshilash, bu jarayon samaradorligini oshirishga doir yangi g'oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq eta olish; ·

Kommunikativ kompetentlik – darslar jarayonida har bir tarbiyalanuvchi bilan samimiy muloqotda bo'lish, uni tinglay bilish, unga ijobiy ta'sir ko'rsata olish, har biriga xos bo'lgan xarakter-xususiyatlarga mos muomalani, yondashuvni topa bilish. ·

Shaxsiy kompetentlik – o'zining kiyinish, muomala madaniyatini kuzatib borish, dunyoqarashini, badiiy didini, ma'naviy fazilatlarini boyitib, yuksaltirib borish; ·

Texnologik kompetentlik – tarbiyachilik sohasidagi bilim, ko'nikma va malakalarni boyitadigan ilg'or texnologiyalarni izchil o'zlashtirib borish, zamonaviy texnika vositalaridan, texnologiyalardan foydalana olish; ·



Ekstremal kompetentlik – bolalar orasida, o‘zi bilan tarbiyalanuvchilar o‘rtasida yuz berishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlarda, tabiiy ofatlar yuz bergan holatlarda, texnologik jarayon ishdan chiqqanda tez va oqilona qarorlar qabul qilish, to‘g‘ri xulosa chiqarish hamda shu asosda harakatlanish malakasiga ega bo‘lish;

Baholash kompetentligi – aytilgan fikrlardagi o‘ziga xoslik, betakrorlik, sodda, qisqa, lekin ma’lum asoslarga ega bo‘lgan pishiq-puxta javob, munosabatning tanqidiyligi darajasidan kelib chiqib munosib baholay bilish va hk [4:97].

Ko‘rinadiki, MTTda faoliyat olib boradigan tarbiyachining bunday sifatlarga ega bo‘lishi uchun bugungi talabalar oldiga bo‘lguvchi pedagogga qo‘yiladigan talablarni qo‘yish ta’limdagi uzluksizlik va uzviylikning ta’minlanishiga asos bo‘ladi.

Buni badiiy asarlar bilan tanishtirish mashg‘ulotlari misolida ko‘raylik. MTT tarbiyachisining kasbiy kompetentligiga xos bo‘lgan bolalarning bilimini to‘g‘ri baholay olish, ularni uzluksiz tafakkurining mustaqillik darajasini aniqlab, baholay bilish bolalarning ma’naviy kamolot yo‘lini aniqlashda katta ahamiyat kasb etadi. Bu mezonni sharhlab shunday izohlash o‘rinliki, bog‘chadagi adabiy ta’limda tarbiyalanuvchilarning har qanday badiiy asar, tasviriy san’at namunalari tahlili asnosida aytgan fikrlaridagi o‘ziga xoslik, o‘zgalar qarashlaridan xoli betakrorlik, soddagina, qisqagina bo‘lsa-da ma’lum asoslarga ega bo‘lgan pishiq-puxta javobini, munosabatining tanqidiyligi darajasidan kelib chiqib to‘g‘ri baholay bilish tarbiyachi kompetentligining darajasiga bog‘liqdir.

Shu ma’noda aytish mumkinki, tarbiyachilarning tafakkuri va faoliyati mustaqilligi darajasini aniqlash hamda uni munosib baholay bilish tarbiyachining o‘zi mustaqil fikr sohibi bo‘lishini taqozo etadi. Chunki o‘zi mustaqil fikr egasi bo‘lmagan tarbiyachi tarbiyalanuvchilarini mustaqil faoliyatga yo‘naltira olmaydi, ularni munosib baholashga ham qodir bo‘lolmaydi. O‘zining mustaqil nazari bo‘lmagan tarbiyachi o‘rganilayotgan obyektidagi (badiiy matndagi) tarbiyalanuvchilardan mustaqil mulohaza yuritishni talab etadigan detallarni ilg‘amaydi. Natijada tarbiyalanuvchilar badiiy asarning mazmunini qayta hikoyalab



berish, tasviriy san'at asarlari bo'yicha ko'rinib turgan asosiy jihatlarni sanash bilan chegaralanadilar va ularning aqliy, ma'naviy taraqqiyoti ham shu atrofda bo'laveradi.

To'g'ri, MTT tarbiyachilarining har ikkala janrdagi asarlarning yuzaki jihatlarni ajratib aytib berishlari ham yetarli, deydiganlar ham topiladi. Amaldagi davlat talablarining asosiy talablaridan biri ham shu. Lekin yosh guruhlarda hammaga o'xshamaydigan, o'z intellektual imkoniyatlari bilan atrofdagilardan ajralib turadigan tarbiyalanuvchilar bo'ladi. Gap shu tarbiyalanuvchilarning o'rtachalar qurboni bo'lib ketmasligida. Tarbiyachi mashg'ulotlarni imkon qadar yuqori saviyada tashkil eta olishi, uni tarbiyalanuvchilarning har biri o'z imkoniyatlari darajasida qabul qilishlari uchun zaruriy shart-sharoitni yarata bilishi uning kompetentligi darajasini namoyon etadi.

Xullas, MTTda badiiy adabiyot bilan tanishtirishni uning maqsadiga muvofiq tashkil etishda MTT tarbiyachilarining kasbiy kompetentligi uning saviyasi, dunyoqarashi, bilimi, ko'nikma va malakalarini takomillashtirishini, ayni zamonda, o'zining ma'naviy sog'lomligi uchun qayg'urishini ham taqozo etadi.

FOYDALANILOGAN ADABIYOTALAR

- 1.«Ilk qadam». Maktabgacha ta'lim muassasalari davlat o'quv dasturi. Tayyorlaganlar: I.V.Grasheva, L.G.Evstafeva, D.T.Mahmudova, Sh.B.Nabihonova, S.V.Pak, G.Je.Djanpeisova. – T.: MTV, 2018. – p. 268.
- 2.Миндлина Т. Я. Дошкольное воспитание во Франции. – Москва: Педагогика, 1984. – 64 с.
- 3.Husanboeva Q., Shodiev F., Hazratqulov M. Boshlang'ich sinflarda adabiyot o'qitish metodikasi. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2019. – 380 b.
- 4.Муслимов Н., Усмонбоева М., Сайфуров Д., Тўраев А. Педагогик КОМПЕТЕНТЛИК ва креативлик асослари. –Т.: Sano-standart, 2015. – 168 б. faoliyatga yo'naltira borish va ayni zamonda, tarbiyalanuvchilar